

## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUHANDISLIK FANLARINI YANGICHA YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI VA INNOVATSION SALOHIYATGA EGA MUHANDISLARNI TAYYORLASH ASOSLARI

**Aliqulova Surayyo Xoshimjanovna**

Xorazm viloyati Xiva shahri "Yangi turmush" MFY xotin – qizlar faoli

Tel: +998-91-914-86-08

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lif muassasalarida muhandislik fanlarini o'qitishning yangi innovatsion ta'lif texnologiyalaridan foydalanish va uning ta'lif samaradorligiga ijobiy tasirlari ilmiy tahlil qilingan. Ilmiy izlanishlarimizni asoslash va dolzarbligini o'rganish maqsadida bir qancha adabiyotlar tahlil qilingan bo'lib, talabalarni muhandislik fanlarini o'zlashtirish va texnik-innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantira oladigan innovatsion ta'lif muxitini, shuningdek talabalarni muhandislik fanlarini o'zlashtirish ko'rsatgichlarini keskin oshirishga imkon beruvchi ta'lif texnologiyalarini yaratish ilmiy izlanishlarimizning asosiy yo'nalishi va maqsadi qilib belgilandi. Ilmiy izlanishlarimiz natijasida talabalarni fanlarga nisbatan qiziqishlarini oshirish va o'zlashtirish ko'rsatgichlarini yaxshilash uchun zamonaviy adabiyotlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish zarurati aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, chizma, tasvir, detal ko'rinishi, ta'lif texnologiyalari, innovatsion ta'lif muxiti, innovatsion qobiliyat, ta'lif jarayoni, mustaqil ta'lif, o'zlashtirish ko'rsatgichlari, metodlarni interfaol, interaktiv metod, innovatsion fikrlash madaniyati, ta'lifni rivojlanirish mexanizmlari, talabaning shaxsiy ko'rsatgichlari, o'z-o'zini baholash tizimi va individual nazorat.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning ta'lif tizimlaridagi ilg'or tajribalaridan foydalanish va o'zimizning milliy ta'lif tizimimidagi samarali ta'lif texnologiyalarni yanada yahshilash shu kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi davr mashinasozligi tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida, hamda yuksak darajada iqtisidiy barqarorlikga erishgan davlatlar qatorida bo'lismiz uchun milliy kadrlarimizdan kuchli bilim, yusak darajadagi malaka, yuqori intelektual salohiyat va innovatsion fikrlash qobiliyatlarining shakllanganligi talab qilinadi. Bunday kadrlarni tayyorlash va dunyo bilan raqobatga kirishaolishi uchun ta'lif jarayonlariga ijobiy o'zgarishlarni kiritish talab qilinadi, ya'ni innovatsion ta'lif muhitini yaratish va shu asosida talabalarning innovatsion faoliyat madaniyatini shakllantirish zarur hisoblanadi. Innovatsion ta'lif muxitida etishib chiqqan kadrlar, zamonning xar qanday o'zgarishlariga tezda moslashaoladi va o'zining innovatsion intelektual salohiyati natijasida muammoning innovatsion echimlarini topaoladi [1].

Demak innovatsion faoliyat olib boradigan kadrlarni etishtirish uchun ta'lif jarayoniga jiddiy o'zgartirishlarni kiritish talab qilinida. Chunki talabandan to yuksak darajadagi innovatsion fikrlay oladigan kadrgacha olib chiqish jarayoni ko'p faktorli jarayon hisoblanadi. Bunda nafaqat oliy ta'lif muassasalari balkim ishlab chiqarish korxonalari, servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va shuningdek jamiyatning barcha qatlamlarining faol qatnashishi talab qilinadi.

Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratib beradi.

Shaxslarning innovatsion qobiliyatlarini erkin jamiyatda, oilada, ta'lif jarayonida va ish muxitida shakllanadi. Buning uchun esa jamiyatda, ta'lif jarayonida va ish muxitida innovatsion fikrlash va innovatsion faoliyat olib borish uchun etarli sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi

kerak [2]. Innovatsion yangiliklar shaxsning miyasida paydo bo'ladi. Ammo innovatsion g'oyalarga etarli darajadagi innovatsion muxitni va o'z navbatida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar yaratilib berilmas ekan, har qanday innovatsion yangiliklar o'z-o'zidan so'nib, yo'q bo'lib ketishi mumkun. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida va ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish va innovatsiyalarni yaratishga barcha sharoitlar yaratilgan bo'lishi talab etiladi.

Mehnat bozorida muhandislarga bo'lgan talab keskin oshishi natijasida mehnat bozori talablariga tezkor va samarali tarzda javob berishga qodir bo'lgan oliy ta'lim tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Bozor munosabatlariga o'tish oliy ma'lumotli mutaxassislar, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etishga yangi talablar qo'yadi. Bozor munosabatlarining subyekti sifatida oliy ta'lim tizimi o'z tarkibini yangi funksiyaga aylantirishi, ya'ni, yangi moliyalashtirish assoslari sifatida oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot natijalariga asosan yangicha yo'nalishdagi munosabatlarni yo'nga qo'yish, ta'lim jarayonlarini nazorat qilishning yangi innovatsion shakllarini o'zlashtirishi, ta'limni boshqarish usullarini yangilashi va ilmiy tadqiqot ishlarini oliy ta'limning asosiy vazifasi sifatida ko'rishi zarur hisoblaniladi [3. 25-26 bet]. Demak, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida va shafqatsiz raqobatlashuv mavjud dunyoda davlatimiz o'zining munosib o'ringa ega bo'lishi uchun, ilmiy va kasbiy jihatdan yuqori salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan, har qanday ishni yuksak mahorat bilan bajara oladigan hamda ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy va boshqa sohalarda o'zining innovatsion faoliyat yurguza oladigan milliy kadrlarga muhtojligi mamlakatimizning asosiy dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda. Bu masalalarni yechish bevosita oliy ta'lim zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shunga asosan texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini innovatsion tarzda tashkil qilish, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlarni joriy qilish, talabalarning innovatsion faoliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat beruvchi mexanizmlarni vujudga keltirish rejalashtirilgan maqsadimizga erishishimizga dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi [4]. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlanirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi [5]. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi.


Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

**1. Interfaol metodlar:** "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

**2. Strategiyalar:** "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va b.

**3. Grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Kontseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b [6].


Chizma geometriya va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda "Klaster" metoddan foydalanish talabalarni bilim saviyasini oshirishga kata yordam beradi. "Klaster" (g'uncha, to'plam, bog'lam) GO – puxta o'ylangan strategiya bo'lib, ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Bu metod misolida talabalarga "Detallarni ko'rinishlarini tasvirlash vositalari va qoidalari" mavzusini yoritishni ko'rib chiqamiz. Talabalarga mavzu bo'yicha barcha ma'lumotlar beriladi va bu asosda grafik organayzer tuzish topshiriladi yoki topshiriq qog'izi beriladi (1-rasm).



**1-rasm. Topshiriqni bajarish uchun ish qog'izi**

Talabalar topshiriqni bajargandan keyin o'qituvchini echimi bilan solishtirish asosida talabalar baholanadi. Baholanish vaqtida yangi echimlar yoki o'ziga hos yondashuvlar etiborga olinim alohida rag'batlantriladi. Bu jarayonda talabalar ham o'zlarini kamchiliklarini yoqqol ko'rishlari mumkun (2-rasm).

Topshiriq yechimiga oid namuna



**2-rasm. Tasvirlarni bajarishning asosiy qoidalari modulini klasterda metodida ifodalash**

Shunday qilib, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi, ta'lim oluvchi)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Interfaol ta'limning eng muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Eng muhimi ta'lim beruvchilar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari lozim. Qolaversa, interfaol ta'lim texnologiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa ta'lim beruvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.A. Sapayev, "Innovatsion ta'lim muhitini shakllantrishda texnik oily ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasi", Ilm sarchashmalari 2022 Yil 9-Son, 174-176 betlar.
2. . M. Jakovljevic, "A model for innovation in higher education", Department of Science and Technology Education University of South Africa. South African Journal of Higher Education, Volume 32 | Number 4 | 2018 | pages 109–131.
3. Haqnazarova N.Q., "Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mos prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish" Ped. fan. dok. diss..-Toshkent: 2020.-345 b.
4. М.К.Холимовнинг "Геометрик ва проекцион чизмачилик", Т.: 2013
5. Colin H Simmons, Dennis E Maguire "Manual of Engineering Drawing" Colin H. Simmons and Denis E. Maguire, Great Britain-2004.67
6. Ў.Толипов, М.Усмонбоева. Педагогик технология:назария ва амалиёт. Т.: «Фан», 2005.
7. Сайдахмедов Н.С. Педагогик амалиётда янги педагогик технологияларни қўллаш намуналари. Т.: РТМ, 2000.